

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Аликариев Нуриддин МАТЕМАТИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВОУ.....	5
2. Abduraxmonova Manzura, Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILA FARZANGLARINI IJTIMOYILASHUVIDA MAKTAB VA MAHALLA IJTIMOYIY XODIMINING HAMKORLIGI.....	12
3. Сеитова Зухрагон ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В СОЦИОЛОГИИ.....	21
4. Tagieva Gulsum NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHDA IJTIMOYIY TA'MINOTNING O'RNI.....	28
5. Kayumov Kaxramon HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	36
6. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA ALGORITMIK YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	43
7. Mahammadjanov G'olibjon СОЦИОЛОГИК ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЖТИМОЙИЙ ОНГ ТРАНСФОРМАЦИЯСИГА ОИД ПАРАДИГМАЛАР ТАЪЛИЛИ.....	51
8. Masharipov Baxtiyor SHAHAR EKOTIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI INNOVASION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOYIY ZARURATI.....	57
9. Gaibnazarov Boxodir SOTSIAL BOSHQARUV TIZIMINING SAMARADORLIGI: XORIJIY TAJRIBA.....	66
10. Ixtiyarov Farxod DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	73
11. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA IJTIMOYIY ISH KADRLARINI TAYYORLASH JARAYONLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
12. Akhmedova Rano WELFARE AS A MEASURE OF LIFE SATISFACTION.....	90


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Каюмов Кахрамон,

О‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

HOZIRGI DAVRDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13341868>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish omillariga, o‘rganilish tarixiga e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga kichik shaharlarning atrof-muhit strukturasi, madaniy hayotiga, o‘tmishdagi, hozirgi va kelajak avlodlar uchun qoldirilayotgan estetik, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy yoki ma‘naviy qadriyatlarga, ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda samarali integratsiya va uning barqaror rivojlantirish masalalarining ijtimoiy ahamiyatini yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, maqolada mavzuga oid nazariy qarashlar tahlil qilingan. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida, rivojlanishida kichik shaharlarning o‘rni va rolini, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yordam yoritish masalalariga ahamiyat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kichik shahar, ijtimoiy infratuzilma, globalashuv, integratsiya, xizmatlar sohasi, sog‘liqni saqlash, tibbiy sug‘urta, aholini kam ta‘minlangan qatlam, intellektual xizmat, ishlab chiqarish, ijtimoiy siyosat, ratsional faoliyat.

Каюмов Кахрамон,

Университет журналистики и массовых коммуникация Узбекистана, заведующий кафедрой социально-гуманитарных наук доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: nqayumov@inbox.ru

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ МАЛЫХ ГОРОДОВ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена факторам развития социальной инфраструктуры малых городов, истории их изучения. Наряду с этим, были предприняты усилия по освещению социальной значимости вопросов эффективной интеграции и устойчивого развития в структуре окружающей среды, культурной жизни малых городов, эстетических, исторических, научных, социальных или духовных ценностей, оставляемых прошлым, настоящим и будущим поколениям, в управлении социальной инфраструктурой. В статье также проанализированы

теоретические взгляды на эту тему. Особое внимание уделяется освещению роли и значения малых городов в социально-экономической жизни, развитию страны, вопросам здравоохранения, социальной политики, социальной помощи.

Ключевые слова: малый город, социальная инфраструктура, глобализация, интеграция, сфера услуг, здравоохранение, медицинское страхование, малообеспеченные слои населения, интеллектуальный сервис, производство, социальная политика, рациональная деятельность.

Kayumov Kahramon,
Uzbekistan journalism and Mass Communications
Head of the Department of social and humanitarian Sciences of the
University, Doctor of philosophy (PhD) in sociology
e-mail: nqayumov@inbox.ru

FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL INFRASTRUCTURE OF SMALL TOWNS AT THE PRESENT TIME

ABSTRACT

This article is devoted to the factors of development of social infrastructure of small towns, history of their study. At the same time, efforts were made to highlight the social significance of issues of effective integration and sustainable development in the structure of the environment, cultural life of small towns, aesthetic, historical, scientific, social or spiritual values left to past, present and future generations, in the management of social infrastructure. The article also analyzes theoretical views on this topic. Particular attention is paid to highlighting the role and importance of small towns in socio-economic life, development of the country, health care, social policy, social assistance.

Keywords: small town, social infrastructure, globalization, integration, service sector, healthcare, medical insurance, low-income segments of the population, intellectual service, production, social policy, rational activity.

KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekiston chuqur o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda. Bu butun jamiyatga ham, uning alohida turli jabhalariga, shu jumladan, kichik shaharlar rivojlanishiga ham ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz ijtimoiy voqeligidagi o'zgarishlarning sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan tuman va shaharlar ro'yxatini aniqlash, ushbu tumanlarda aholi bandligi dasturlarining manzilli ro'yxatlari, kichik sanoat zonalari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va issiqxona xo'jaliklarini barpo etish, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun yangi «start-ap» loyihalarini amalga oshirishga mikrokreditlar va lizing asosida ishlab chiqarish vositalarini ajratish orqali aholining, ayniqsa, yoshlarning bandligini ta'minlash kabi muammolarni hal etishda mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish tobora dolzarb ahamiyatga ega. Bu ayni shu yo'nalishdagi muammolarni sotsiologik tadqiqotlar doirasida batafsil tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA

Mamlakatimizda mavjud 119 ta shaharning 81 tasi kichik shaharlar toifasiga kiradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, kichik shaharlarda sodir bo'lgan barcha o'zgarishlar O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosiy qismiga ta'sir qiladi. Kichik shaharlar asosiy savdo bozorlaridan yiroqda bo'lib, jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada aniqroq his qilish imkonini beradi. Ya'ni, kichik shaharlardagi tub o'zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha tomonlariga ta'sir qiladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda mavjud kichik shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan yuqori ko'rsatgichni namoyon etmoqda. Ayniqsa, aholini uy-joy

bilan ta'minlanganlik darajasi, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlari yo'lga qo'yilishi va boshqaruvdagi muammolar tufayli kichik shaharlarni rivojlantirish ancha qiyin kechmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ushbu mavzuni ilmiy o'rganish dolzarblik kasb etadi.

ASOSIY QISM

Hozirgi davrda O'zbekiston chuqur o'zgarishlarni o'z boshidan kechirmoqda. Bu butun jamiyatga ham, uning alohida turli jabhalariga, shu jumladan kichik shaharlar rivojlanishiga ham ta'sir qilmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimiz ijtimoiy voqeligidagi o'zgarishlarning sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan tuman va shaharlar ro'yxatini aniqlash, ushbu tumanlarda aholi bandligi dasturlarining manzilli ro'yxatlari, kichik sanoat zonalari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va issiqxona xo'jaliklarini barpo etish, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari uchun yangi «start-ap» loyihalarini amalga oshirishga mikrokreditlar va lizing asosida ishlab chiqarish vositalarini ajratish orqali aholining ayniqsa yoshlarning bandligini ta'minlash kabi muammolarni hal etishda mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish tobora dolzarb ahamiyatga ega. Bu ayni shu yo'nalishdagi muammolarni sotsiologik tadqiqotlar doirasida batafsil tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xorijda chop etilgan shahar sotsiologiyasi sohasidagi ilmiy adabiyotlardan ma'lum bo'ladiki, infratuzilma tushunchasi XX asr boshlarida birinchi bor harbiy qurolli kuchlarning to'laqonli faoliyat yurgizishi uchun zarur bo'lgan obyektlar va inshootlar nuqtai-nazardan ishlatilgan. Keyinchalik esa 1940-yillariga kelib esa infratuzilma jamiyatning moddiy ishlab chiqarish sohasiga zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tarmoq va muassasalarining yaxlit bir tarkibi sifatida tushunilgan. 1970-1980-yillardan sobiq ittifoq respublikalarining ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarida, odatda, infratuzilmani muhandis – texnik bino va inshootlarning yig'indisi sifatida talqin qilish holatlari ko'proq kuzatilgan. Bugungi kunga kelib esa infratuzilma atamasi ishlab chiqarish va aholiga sifatli xizmat ko'rsatish ma'nolarini anglatib uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida talqin qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqola mazmunidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, infratuzilma deganda bu kichik shaharlarda tashkil etilgan har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qism tushuniladi. So'zma-so'z ifodalaganda, infratuzilma – bu kichik shaharlardagi yangi iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi ma'nolarini ham ifodalaydi.

Bizga ma'lumki, “infratuzilma” atamasi lotincha “infra” – so'zidan olingan bo'lib quyi, osti; “structura” – tuzilma, joylashuv ma'nosini anglatadi. Kichik shaharlar infratuzilmasi – bu ayni shu hududda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining samarali faoliyat yuritishi va aholi turmush darajasini oshirishga ko'maklashuvchi xizmatlar va ularning bino-inshootlar tizimidir. Bundan ma'lum bo'ladiki, Kichik shaharlar infratuzilmasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda aholi turmush darajasini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik shaharlar infratuzilmasida ishlab chiqarish o'z ichiga aholi va biznesga energiya, yoqilg'i, suv, ishlab chiqarish qurilmalari, kapital qurilish va ta'mirlash xizmatlari bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarni qamrab oladi. Bu hududdagi ijtimoiy infratuzilma esa inson salohiyatini (kapitalini) kasbiy ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish orqali o'sishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bizning nazarimizda, ijtimoiy infratuzilma kishilarning maishiy, ma'naviy, madaniy ehtiyojlarini qondirish orqali uni har tomonlama sotsial rivojlanishga xizmat qiladigan o'ziga xos tizim hisoblanadi. Iqtisodchilarni hisob-kitobi bo'yicha o'rtacha kun kechirish uchun er yuzidagi aholi kamida kuniga 15 evro ishlab topishi kerak ekan. Biroq, dunyo aholisining deyarli yarmidan ko'pi hozirgi kunda o'rtacha kun kechirish uchun belgilangan ko'rsatgichdan 7 barobar kam daromadga ega. Dunyoning kambag'al davlatlaridagi aholi 1 evrodan kam daromadga ega ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud. Lekin, jahondagi 200 ta boy inson bir sekundda o'rtacha 25 evro daromad qilayotganligi haqida ham dalillar mavjud.

Kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi muammosi XIX asrning o'rtalaridan beri ilmiy qiziqish obyekti bo'lib kelmoqda. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish

muammolarini o'rganish natijalari R.Park [1, – C.31], M.Veber [2, – C.309-446], E.Dyurkgeym [3, – C.332], P.Sorokin [4, – C.295-424], kabi G'arb sotsiolog olimlari asarlarida keltirilgan. Mazkur olimlar kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o'rtasida qarama-qarshiliklarni aniqlash, ijtimoiy rivojlanishni iqtisodiy o'sishga ta'siri, kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlariga bog'liqligi masalalariga alohida e'tibor qaratganlar.

Bizning nazarimizda, kichik shaharlardagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari ko'pincha o'z-o'zidan rivojlanadi, ularni boshqarishda kompleks yondashuv mavjud emas. O'z-o'zidan paydo bo'lgan bozor sharoitida ijtimoiy institutlar notekis rivojlanadi. Umuman kichik shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlanish darajasi va ijtimoiy infratuzilma elementlarining muvozanat va oqilona taqsimlanish darajasi bilan xarakterlanadi [5, – C.35-40].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida esa kichik shaharlarining ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish muammolari H.A.Aitov, G.M.Lappo va boshqa tadqiqotchilar ishlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu mualliflar kichik shaharlardagi ijtimoiy infratuzilma obyektlarida mavjud muammolarni o'rganish va ijtimoiy menejment va rejalashtirish metodologiyasini ishlab chiqish va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo'yicha amaliy tajribani umumlashtirishga katta hissa qo'shdilar. Shuningdek, ular Rossiya Federatsiyasi misolida ijtimoiy infratuzilmani inson hayotini farovonlashtirishdagi o'rni, mehnat, ijtimoiy, madaniy, oilaviy va maishiy faoliyatni tashkil etishning shart-sharoitlari haqida muhim ilmiy-konseptual qarashlarni ilgari surganlar [6, – C.170-186].

Jamiyat sotsial hayotida ijtimoiy infratuzilma subyektlarining asosiy funksiyalari aholini joriy va istiqboldagi ehtiyojni rejalashtirish, imtiyozli to'lovlarni amalga oshirish, aholining asosiy jismoniy ehtiyojlarini qondirish, malaka va muhim kasbiy sifatlarni baholash, aholini savodxonlik darajasini oshirish, ularni o'qitish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, aholining ma'naviy va madaniy darajasini oshirish, ijtimoiy-ruhiy muhitni saqlash, korporativ madaniyatni shakllantirish hamda aholining ijtimoiy ta'minotini yaxshilash kabilarda yorqin namoyon bo'ladi. Shuningdek, bugungi kunda kichik shaharlar taraqqiyotining muhim iqtisodiy asosi bo'lgan bozor infratuzilmasi esa tovar, pul va kapitallarning aylanishini tezlashtirishga xizmat qiladi va o'z ichiga birjalar, bank tizimi, sug'urta xizmatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda katta yoki o'rta shaharlar kabi kichik shaharlarga ham ijtimoiy-iqtisodiy tomondan munosib shart-sharoit yaratib berish, mazkur sotsial tipdagi shaharlar uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni joylashtirish uchun qulay investitsiya muhiti hamda shart-sharoitlarni yaratish, er uchastkalari bozorini shakllantirish, maqsadli moliya mablag'larini yo'naltirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, kichik shaharlar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan, byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan hamda yangi tashkil etilgan urbanizatsiya jamg'armasi mablag'laridan, mavjud va tashkil etish ko'zda tutilayotgan erkin iqtisodiy zonalar, ayniqsa kichik sanoat zonalarini imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shahar hokimliklari mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, xalqaro standartlar va reytinglar bilan uyg'unlashtirgan holda shahar aholisi sonining statistik hisobini yuritishni takomillashtirish muhim muammolar sirasiga kiradi. Shu boisdan ham "Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirildi, ma'muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish hamda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari vakolatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini boshqarish mexanizmi soddalashtirildi" [7].

Bizning nazarimizda bugungi kunda kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- kichik shaharlar tizimida aholini sog'ligini saqlash maqsadida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish va bu jarayonda davlat-xususiy aralash modelini joriy qilish ayniqsa xususiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish, aholini kam ta'minlangan qatlamini davlat tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishi e'tiborga molik;

- kichik shaharlar tizimida ijtimoiy siyosatni yanada faollashtirishda inson kapitalini alohida hisobga olish, xususiyl xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar faoliyatini muntazam rag'batlantirib borish, barcha uchun bir xil bepul davlat ta'limini saqlab qolish bilan bir qatorda bu tizimni jahon ta'lim tizimi talablari darajasiga olib chiqish, yuqori malakali ishchi kuchlarini eksport qilish muhim ahamiyatga ega;

- kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirishning intellektual va madaniy omillariga alohida e'tibor qaratish, buning uchun intellektual xizmatlarni jonlantirish, yosh avlodni san'at va ijodga bo'lgan yuqori darajadagi talablarini muntazam hisobga olib ish tutish va bu yo'nalishda mamlakatning milliy brendini shakllantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi;

- kichik shaharlar tizimida ekologiya sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, bu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etishda davlat cheklov choralarini oshirish va aholi e'tiborini ekologiyaga qaratish hisobidan yig'iladigan mablag'larni ratsional yo'l bilan oshirish yo'llarini izlash va tabiatni asrab-avaylashga qaratilgan harakatlar, turli darajadagi loyihalarni joriy qilish, bu sohaga ham ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni muntazam jalb qilish muhim ahamiyatga ega;

- xalqaro kompaniyalar va mutaxassislarni jalb qilish orqali O'zbekiston kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirish maqsadida innovatsion markazlarni yaratish va rivojlantirish, mavjud infratuzilmani zamonaviylashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish tizimini mahalliyashtirish siyosatini muntazam yo'lga qo'yish, kapital amnistiyasi, soliq islohotlarini amalga oshirish, davlat-xususiyl sherikchilikni yangi bosqichga olib chiqish va boshqalar shular jumlasidandir.

Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda uning obyektlarini asrash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, shahar obyektlarini asrash ayrim binolarni saqlab qolish bilan cheklanib qolmaydi. Bunda me'morchilik – shahar muhitini har tomonlama o'z ichiga oladigan elementlardan biri sifatida ko'rib chiqilib, murakkab va ko'pqirrali soha sifatida shakllantirilib boriladi. Demak, shahar obyektlarini saqlab qolish shaharsozlikdagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Kichik shaharlarni paydo bo'lishida qurib bitkazilgan muhit ham muhim o'rinni egallagan. Qurib bitkazilgan muhit – inson faoliyati natijasida vujudga kelgan resurslardan va infrastrukturallardan iborat (tabiiy muhitdan farqli) bo'lib, inson uchun xizmat qilishga mo'ljallangan. Bular: binolar, yo'llar, bog'lar va boshqa madaniy-maishiy obyektlardan iboratdir.

Kichik shaharlarni paydo bo'lishida landshaftli yondashuv muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki, landshaftli yondashuv manzaralar darajasida obyektlarni saqlash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun harakat maydonini aniqlashga xizmat qilgan. Landshaftli yondashuv aniq xarakterlarning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror chiqarishga hamda rejalashtirishni engillashtirishga, muzokaralar o'tkazishga va butun landshaft doirasida tadbirlarni bajarishga (masalan, yangi yo'l qurish yoki ko'chatlar ekishga) ko'maklashadi.

Kichik shaharlarni rivojlanishida atrof-muhit strukturasi ham hisobga olingan. Odatda atrof-muhit strukturasi deganda obyektning, hudud merosi muhitidagi obyektning ahamiyatiga, ajratuvchi tavsianomalarga ta'sir etuvchi, shu elementlardan biri hisoblangan, bevosita birikkan va kengaytirilgan muhit e'tiborga olinadi.

Kichik shaharlarni rivojlanishida madaniy hayot muhim o'rinni egallagan. Madaniy hayot deganda o'tmishdagi, hozirgi va kelajak avlodlar uchun qoldirilayotgan estetik, tarixiy, ilmiy, ijtimoiy yoki ma'naviy qadriyatlar tushuniladi. Madaniy hayot bir joyning o'zida, uning tuzilmasida, muhitida, undan foydalanishda, ma'no-mohiyatida, mazmunli aspektlarda, arxivlarda, chigallashgan muhitli joylarda yoki murakkab (bir-biri bilan bog'liq) predmetlarda namoyon bo'ladi. Joylar, ayrim shaxslar va kishilar guruhlari uchun turli qiymatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda yashaydi. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish jarayonini samarali tashkil etishda innovatsiya hamda ijod markazlari alohida o'rinni egallaydi. Chunki, shu faoliyat shakllari kichik shahar aholisini ish bilan bandlik va o'qishni ta'minlashga imkoniyat yaratadi, odamlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va orzu-umidlarini amalga oshishga katta yordam beradi. Biroq sotsiologik nuqtai-nazardan qaraganda, tez

va nazorat qilib bo'lmaydigan urbanizatsiya ko'pincha ijtimoiy va hududiy parchalanishga va shaharlar, ularga yaqin qishloq joylarida atrof-muhit sharoitlari sifatining keskin yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Xususan, u qurilishlarning o'ta zichligi, standartlashgan va bir xildagi binolarning mavjudligi, jamoaga tegishli makonlar va madaniy-maishiy obyektlarning yo'qotilishi, nomuvofiq infratuzilma, holdan toydiradigan qashshoqlik, ijtimoiy jihatdan ajralib qolish va iqlim bilan bog'liq bo'lgan ofatlar xavfining ortib borishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shahar merosi, uning moddiy va nomoddiy komponentlarini qo'shgan holda, shahar hududlaridagi odamlar hayoti uchun qulaylikni oshirishda asosiy resurs bo'lib, o'zgaruvchan global sharoitda iqtisodiy rivojlanishga va ijtimoiy jipslikka ko'maklashadi. Modomiki, insoniyat kelajagi resurslarni samarali rejalashtirishga va boshqarish bilan bog'liq ekan, merosni saqlash shaharlar o'sishi va barqaror asosda yashash sifati o'rtasida muvozanatga erishish strategiyasi bo'lib qolaveradi. So'nggi yarim asrda shaharlar merosini asrash butun dunyoda davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Bu qadriyatlarni asrash va tarix merosidan samarali foydalanish zaruriyatiga bo'lgan javobdir. Biroq, e'tiborni eng avvalo, me'moriy yodgorliklarga qaratishdan shahar qadriyatlarini asrash borasida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarning keng e'tirof etilishiga o'tish, mavjud siyosatni shunga moslashtirishga intilish bilan quvvatlantirish kerak va ushbu konsepsiyani rivojlantirish uchun yangi mexanizmlar yaratish zarur.

Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda samarali integratsiya va uning barqaror rivojlanishining navbatdagi keng maqsadlari doirasida ularni asrash strategiyasini aniqlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Samarali integratsiya insonni o'rab turgan atrof-muhit sofligini asrashga yo'naltirilgan davlat va xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash manfaatlariga xizmat qiladi. Samarali integratsiya landshaft nuqtai nazaridan ham tarixiy hududlarni aniqlash va asrash uchun foydalanishni, shuningdek ularni yanada keng shahar kontekstida boshqarishni talab etadi. Bu jarayonda ularning fizik shakllari, hududiy tashkillashtirilishi va aloqalari, sharoitlari, tabiiy xususiyatlari va ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy qadriyatlarining o'zaro ta'sirlariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu yondashuv doirasida siyosat hamda manfaatdor tomonlar keng doirasining ishtirokida rahbarlik va boshqaruv sohasidagi vazifalar, shaharlarni rivojlantirish jarayoniga mahalliy, milliy, xududiy, xalqaro, davlat va xususiy sektordagi sheriklar ishtirokini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qayd etiladi.

Kichik shaharlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdan maqsad birinchidan, jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi aholini intellektual salohiyatini oshirish tizimi hisoblanadi. Shuningdek, jamiyat sotsial hayotini turmush sifat darajasini belgilab beruvchi aholi salomatligini yaxshilash tizimi ham ijtimoiy infratuzilmani muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'ladi. Kichik shaharlarda bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish asosan tadbikorlik va ishchanlik muhitini yaratish, aholini xususiy uy-joy bilan ta'minlash, sifatli kommunal xizmatlar ko'rsatish, yangi, yuqori daromadli ish joylarini yaratish, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy himoyalash hamda aholini o'rtacha daromadlarini oshirish orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan ham ijtimoiy infratuzilma subyektlari sifatida infratuzilmaga javobgar davlatning vakolatli organlari, moliyaviy muassasalar, ta'lim muassasalari, tibbiy muassasalar, madaniyat va san'at sohasi tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlari, bandlikka ko'maklashish subyektlari hamda aholini uy-joy bilan ta'minlashda xizmat qiluvchi subyektlar tilga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda o'zining rivojlanishdagi yangi bosqichini boshladi. Jamiyatimizning turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar buning yaqqol tasdig'idir. Jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, boshqaruv, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot, qurilish, ijtimoiy ta'minot va boshqa sohalardagi amalga oshirilayotgan amaliy ishlarni keltirish mumkin. Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoevni quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Shunday davr boshlandiki, endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat" [8].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik shaharlar infratuzilmasini yaxshilashda ijtimoiy siyosat tamoyillaridan samarali foydalanish asosan quyidagilar bilan bog'liq

holda amalga oshiriladi: birinchidan, ijtimoiy siyosatni yuritishda real va potensial maqsadga muvofiqlikga erishish, ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional faoliyat, izchillik, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, uchinchidan, joriy va kelajakdagi maqsadlarning izchilligini ta’minlash, ijtimoiy standartlashtirish, sog‘lom raqobat, yuqori javobgarlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, intellektual resurslar bilan muntazam ta’minlash, to‘rtinchidan, ijtimoiy siyosatni maqsadli, manzilli ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yo‘naltirish, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi muvozanat, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy kafolatlar, shuningdek deklarativlik tamoyilini ustuvorligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi [9, – P.304-309].

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Парк Р. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. – СПб: «Владимир Дал», 2008. – С. 31.
2. Вебер М. Город//Избранное. Образ общества.: Пер. с нем. – М.: Юрист, 1994. – С. 309-446.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда/пер. с фр. А.Б.Гофмана, примечания В.В. Сапова. – М.: Канон, 1996. – С.332.
4. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. –С. 295-424.
5. Технологические модели организации социальной защиты в малых городах. Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история/Сборник статей по материалам международной научно-практической конференции. № 1 (34) Январь 2021 г. – С.35-40.
6. Лаппо Г.М. Проблемы малых городов. В сб.: Народонаселение и экономика. – М.: Экономика, 1967. – С.170-186.
7. Аитов Н.А., Говако Б.И., Игебаева Ф.А. Город. Население. Трудовые ресурсы. – Уфа: Башкирское книжное изд-во, 1982. – 144 с.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
9. Kahramon Nozimjonovich Kayumov. Mechanisms for Improving Sociological Research on The Management and Development of Social Infrastructure in Small Towns. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 8, Issue 3 March, 2021 Pages: Avstrya. – P.304-309.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000